TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 26 - oktabr 439-10-141-Q/22 Parkent tuman hokimligi

Dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi 101-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi dafn etish joylari (qabristonlar)ni saqlash va ulardan foydalanish qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Arxitektura va qurilish bo‘limi (U.Mahkamov), tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi (B.Rahimberdiyev), tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi (Sh.Ataev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (J.Dadaboev):

- dafn etish joylarini saqlash qoidalarning tegishli qabristonlarda bir xilda ijro etilishi;

- qoidalarda belgilangan normalar mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda doimiy targ‘ib qilib borilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror “Parkent tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari E.Raxmonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Sh.Shoaxmedov**

Parkent tuman hokimining
2022 yil 26 oktabrdagi
439-10-141-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi dafn etish joylari (qabristonlar)ni saqlash va ulardan foydalanish qoidalari

1. Qabristonlar bevosita tuman hokimligi tasarrufida bo‘ladi, ularni zarur holatda saqlash va obodonlashtirish vazifasi tuman hokimligiga yuklanadi.

2. Qabristonlarni obodonlashtirish, obyektlarini saqlash va ulardan foydalanishga, dafn etish xizmatlari ko‘rsatishga doir bevosita faoliyat tuman hokimligi tomonidan ta’sis etiladigan tuman obodonlashtirish boshqarmasi (fuqarolik xizmati ko‘rsatish boshqarmasi) tomonidan amalga oshiriladi.

3. Qabristonlarni obodonlashtirish, mukammal va joriy ta’mirlash, ularni zarur holatda saqlash, mablag‘larni xarajatlarning alohida moddasi bo‘yicha ajratgan holda, mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

Bunda go‘rkovlar va marosim xizmatlari ko‘rsatuvchi xodimlar ta’minoti tuman hokimligi tomonidan belgilanadigan tariflar bo‘yicha ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar uchun aholida tushadigan mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

4. Qabristonlarni saqlash va obodonlashtirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning xayr ehsonlaridan ham foydalaniladi.

5. Qabristonlarni obodonlashtirish fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ko‘magida hashar yo‘li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

6. Qabristonlar hududini obodonlashtirish elementlariga qabristonlar hududini to‘siq bilan o‘rash, dafn joylari, yashil o‘simliklar, o‘tish joylari, xiyobonlar, yo‘llar va yo‘lkalar, xo‘jalik hovlilari, ma’muriy binolar va yordamchi imoratlar, muhandislik inshootlari va boshqalar kiradi.

7. Qabristonlar hududi to‘siqlar bilan o‘raladi hamda o‘zaro yo‘llar va hiyobonlar bilan bo‘lingan, tartib raqamlari qo‘yilgan sektorlarga, uchastkalarga bo‘linadi.